

AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING O'RNI

To'xtaev Og'abek Foziljon o'g'li

TURON ZARMED universiteti

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Biz bilamizki moliyaviy savodxonlik - fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyani egallash, jamiyatda o'zini va oila a'zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar yig'indisidir.

Kalit so'z: Moliyaviy savodxonlik, daromad, iqtisodiy erkinlik, kelajak uchun qadam, inovatsiya, tejamkorlik, inson yetukligi.

РОЛЬ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

Тўхтаев Оғабек Фозилжон ўғли

Университет ЗАРМЕД

студента 1 ступени

Аннотация: Мы знаем, что финансовая грамотность – это совокупность знаний и умений, необходимых гражданину для занятия активной позиции на рынке финансовых продуктов и услуг, для повышения финансового благополучия себя и членов своей семьи в обществе.

Ключевые слова: Финансовая грамотность, доход, экономическая свобода, шаг в будущее, инновации, бережливость, человеческая зрелость.

THE ROLE OF INCREASING THE FINANCIAL LITERACY OF THE POPULATION IN INCREASING THE LIVING STANDARDS OF THE POPULATION

Tukhtaev Ogabek Fozilzhon oqli

ZARMED University

1st stage student

***Annotation:** We know that financial literacy is a set of knowledge and skills necessary for a citizen to take an active position in the market of financial products and services, to increase the financial well-being of himself and his family members in society.*

***Key words:** Financial literacy, income, economic freedom, step into the future, innovation, frugality, human maturity.*

Ushbu ta'rif asosida moliyaviy savodxonlik insonlar uchun nimaga kerak degan savolga javob olishimiz mumkin. Xo'sh o'z o'rnida ikkinchi savol tug'iladi: moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun nima qilish mumkin. Bilamizki, barcha davlatlarda aholining moliyaviy savodxonlik darajasi taxlil qilinadi va baholanadi. Moliyaviy savodxon bo'lish bu kelajakga investitsiya bor ekanligi va kelajakni yorqin ko'ra olish yoki shu kelajakni qurishimizga imkon beradi. Bir o'ylab ko'raylik moliyaviy savodxon inson aslida qanday bo'ladi va uning qanday sifatlari mavjud. Bunday shaxs: shaxsiy daromad maoshlarini to'la hisoblab boradigan, kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarga e'tibor beradigan ya'ni hisobga olinmagan harajatlar uchun depozit yoki omonot puli jamg'arib bora oladigan, keraksiz va ortiqcha moliyaviy xizmatlardan foydalanmaydigan zarur qachon foydalanish kerak ekanligini biladigan insonni olsak bo'ladi. Biz qaysidir insonni moliyaviy savodxon deya olishimiz uchun bu inson quyidagilarni bilmog'i ya'ni, iqtisodiy qonunlar, davlatdagi

o'ziga kerak yo'nalishdagi iqtisodiy holatni o'rganishi va doimiy ravishda kuzatib borishi lozim. Lekin bu qoidalarni hamma ham bilmaydi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish borasida chet el tajribalariga nazar soladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari AQShda, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, Avstraliyada, Hindistonda, Indoneziyada, Malayziyada, Rossiyada, Chexiyada va boshqa mamlakatlarda amal qilmoqda. Aholi xizmatlari taklifiga moliya bozori parametridagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatsa, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabiga esa ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kecha kunduzda iqtisodiyotda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning milliy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda obektivlik va mustaqillik tamoyillariga rioya etilishi zarur.

Rossiyadagi aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturi — fuqarolarga ularni qiziqtirayotgan moliyaviy masalalarga to'liq va malakali javob olishga asoslangan aholi savodxonligini oshirishni innovatsion dasturi hisoblanadi. Ushbu dastur innovatsiya, ommaboplik va soddalilik tamoyillariga asoslab ishlab chiqilganligini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi tabiiy va moliyaviy resurslardan optimal foydalanishni talab qiladi. Shu sababli moliyaviy savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan har qanday dasturning asosini tejamkorlikni oshirish va investitsion faoliyatni rivojlantirish tashkil qiladi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturining iqtisodiyotga ko'rsatadigan bilvosita ta'siriga aholi xarid qobiliyatini o'sishi kiradi. Shunday qilib, aholining moliyaviy madaniyatini ortishi quyidagi omillar orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bularga:

- mehnat unumdorligini oshishi hisobiga yalpi ichki mahsulotni o'sishi;

- moliya bozorini rivojlanishi, aholi daromadini investitsiyalarga yo'naltirilishi, tovar va xizmatlarning sifatini yaxshilanishi, amaldagi qonunchilikning takomillashtirilishi;
- tadbirkorlar va ishchilarning moliyaviy madaniyati ortishi hisobiga kichik biznes va mehnat bozorini rivojlanishi;
- resurslardan, shu jumladan byudjet resurslaridan maqsadga muvofiq va ratsional foydalanishi;
- aholini moliyaviy innovatsiyalarni tez o'zlashtirilishi hisobiga fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi;
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ortishi, inflyatsiya ustidan nazoratni kuchayishi, real iqtisodiyotga asoslanishi, aholini moliyaviy savodxonligini oshirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashi.

Moliyaviy savodxonlik quyidagi omillar orqali aholining turmush farovonligini o'sishiga olib keladi:

- iqtisodiy islohotlarni me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashuvi;
- korrupsiyaga qarshi kurashni kuchayishi va jinoyatchilikni kamayishi;
- aholining moliya tizimiga bo'lgan ishonchini va ijtimoiy faolligini oshishi;
- demokratiyani rivojlanishi.

Moliyaviy savodxonlik dasturlari samarali bo'lishi uchun davlat iqtisodiy siyosatining quyidagi dastaklari bilan birgalikda qo'llanilishi lozim:

- iste'molchilar huquqini himoya qilish;
- moliyaviy institutlarning faoliyatini tartibga solish;
- moliya bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- moliya bozori bo'yicha ma'lum otlarni aholiga keng tarqatilishi.¹¹

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, Hozirda yurtimizda bu sohaga qaratilgan e'tibor juda kata va biz buning isboti sifatida bir necha loyihalarni ko'rib chiqishimiz

11 Nazarova S. : "Moliyaviy savodxonlikning asoslari " 17-22 bet.

mumkin. Misol uchun : "Finlit.uz" axborot-ta'lim resursi - bu moliya va iqtisodiyot sohasidagi asosiy bilimlarni o'qitish uchun mo'ljallangan veb-sayt. Resursning asosiy maqsadi moliyaviy savodxonlikni oshirish va fuqarolarning moliyaviy xulq-atvorlarini shakllantirishdir. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank mutaxassislarini qayta tayyorlash departamenti tomonidan amalga oshirilmoqda. 12 Markaziy bank tomonidan "Uzreport" telekanalining "Fayzli tong" dasturida yangi "Moliyaviy savodxonlik" teleloyihasi ishga tushirildi. "Moliyaviy savodxonlik" ta'lim loyihasi Ipak yo'li bank, Turon bank, O'zsanoatqurilishbank, Xalk banki hamda "Humo" to'lov tizimi hamkorligida haftasiga 3 marotaba – har dushanba, chorshanba va juma kunlari efirga uzatiladi.

Loyihada quyidagi dolzarb mavzular yoritiladi:

- raqamli moliyaviy savodxonlik va xavfsizlik;
- jamg'arish madaniyatini oshirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish;
- tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlik.¹³

Mamlakatimiz aholisining moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarga ko'pgina misollar keltirishimiz mumkin va bu loyihalar hozirda o'z samarasini berib kelmoqda. Birgina misol sifatida yaqin kunlargaacha raqamli iqtisodiyot haqida tasavvurga ega bo'lmagan insonlarimiz hozirgi kunda Davlatimizda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib raqamli iqtisodiyotning bevosita ishtirokchisi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Albatta biz yoshlar ham bu borada o'z hissamizni qo'shib borishimiz kerak hisoblanadi. Ya'ni aholining hozirgi kunda huquqiy savodxonligi bilan birga ularning moliyaviy, iqtisodiy savodxonlik darajasini oshirishda bizlar ham hissamizni qo'shishimiz lozim. Buni esa yaqin kelajakda uddalaymiz.

¹² <https://finlit.uz/uz/about/>

¹³ <https://finlit.uz/uz/news/714406/>